

Bahodir KARIM



# “O‘TKAN KUNLAR” IBRATI

Баҳодир КАРИМ

## “ЎТКАН КУНЛАР” ИБРАТИ



O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI  
«IJOD» JAMOAT FONDI

• Bahodir KARIM •

## “O‘TKAN KUNLAR” IBRATI.



TOSHKENT  
«MASHHUR-PRESS»  
2019

**Badiiy rahbar**

Sirojiddin SAYYID,

O'zbekiston xalq shoiri

*("O'tkan kunlar" romani Bahodir KARIM sharhida)*

Abdulla Qodiriy va "O'tkan kunlar" – bu egizak nomni eshitmagan o'quvchi bo'lmasa kerak.

Aziz kitobxon!

Qodiriyshunos Bahodir Karimning ushbu kitobida "O'tkan kunlar"ning unummazmuni, ayrim qahramonlarning qisqa tavsifi hamda romanning o'ziga xos tahlillari bilan tanishasiz.

Risola Siz azizlar qalbida "O'tkan kunlar"ni o'qish, ilgari o'qiganlarda esa qayta o'qish istagini paydo qilishiga ishonamiz.

*Kitob O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi*

*«Jod» jamoat fondi hamiyligida chop etildi*

ISBN: 978-9943-5673-6-8

© Bahodir KARIM, 2019

© «MASHHUR-PRESS», 2019

*Abdulla Qodiriy tavalludining  
125 yilligi va "O'tkan kunlar" romani  
yozilganining 100 yilligiga armug'on*

## **BIR ASRLIK «O'TKAN KUNLAR»**

Aziz o'quvchim!

Siz o'zbek adibi Abdulla Qodiriyning kimligi, qanday asarlar yozgani to'g'risida ko'p eshitgan-siz. Xususan, "O'tkan kunlar" romani dunyoga mashhur asarlar sirasiga kirishini ham bilasiz. Zero, bundan bir asr muqaddam yozilgan ushbu roman o'zbek adabiyoti tarixidagi eng go'zal va umrboqiy asarlardan biri sanaladi.

Romanning boshida adib o'z niyatini quyidagicha bayon etadi: **"Modomiki, biz yangi davrga oyoq qo'ydiq, bas, biz har bir yo'sunda ham shu yangi davrning yangiliklari ketidan ergashamiz va shunga o'xshash dostonchilik, ro'monchilik va hikoyachiliklarda ham yangarishg'a, xalqimizni shu zamonning "Tohir-Zuhra"lari, "Chor darvish"lari, "Farhod-Shirin" va "Bahrom go'r"lari bilan tanishtirishka o'zimizda majburiyat his etamiz.**

**Yozmoqg'a niyatlaganim ushbu – "O'tkan kunlar", yangi zamon ro'monchiligi bilan tanishish yo'lida kichkina bir tajriba, yana to'g'risi bir havasdir. Ma'lumki, har bir ishning ham yangi – ibtidoiy davrida talay kamchi-**